

Maktab o'quvchilarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar

Qirg'izboyev Umidjon Akramjon o'g'li

O'zDJTU talabasi

Jamoliddinova Madinaxon Nizomjon qizi

NSIFL talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi nafaqat bilim berishni, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Mazkur maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun zamonaviy metod va texnologiyalar, shu jumladan gamifikatsiya, STEAM yondashuvi va interfaol o'quv usullarining pedagogik jarayondagi roli o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, gamifikatsiya, STEAM yondashuvi, innovatsion pedagogika, interfaol o'quv usuli.

Annotation: This article analyzes the importance and effectiveness of innovative pedagogical approaches in developing critical and creative thinking skills among school students. In today's era of globalization, the education system aims not only to impart knowledge but also to foster independent thinking, problem-solving, and creative approaches in students. The article explores modern methods and technologies for developing critical thinking, including gamification, the STEAM approach, and interactive teaching methods, and their role in the educational process.

Keywords: Critical thinking, creative thinking, gamification, STEAM approach, innovative pedagogy, interactive teaching methods.

Bugungi globallashuv va texnologiyalar davrida maktab ta'limi oldida yangi avlodni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish kabi vazifalar turibdi. Ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishdan iboratdir. Bu esa innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llashni talab qiladi. Ingliz tili dunyo hamjamiyatida tobora muhim o'rin egallab borayotganligi sababli, uni yurtimizda ham zamon talablari asosida o'rgatishni yo'lga qo'yish zarur. Bunda, ingliz tilini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi to'rt asosiy ko'nikmani to'laqonli o'zlashtirish alohida o'rin tutadi. Ushbu ko'nikmalarning barchasini rivojlantirish tilni samarali o'zlashtirishning asosi hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlash atrof-muhitni chuqur tahlil qilish, ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish va ularga nisbatan asoslangan fikrlarni bildirish qobiliyatidir. Bu ko'nikma shaxsni manipulyatsiyalardan himoya qiladi va mustaqil qaror qabul qilishda yordam beradi. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirish o'quvchilarning hayotdagi har bir holatni baholash va to'g'ri xulosa chiqarishlariga imkon beradi. Islom Karimovning "O'zining mustaqil fikri, qarashlari va hayotiy pozitsiyasiga ega bo'lmagan odam hech qachon haqiqiy ma'noda erkin bo'lolmaydi" degan fikri bu jarayonda o'qituvchilar va ota-onalar uchun yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi. Bu fikr tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shaxsning nafaqat intellektual, balki ma'naviy erkinligi uchun ham asosiy vosita ekanligini anglatadi.

Ijodiy fikrlash esa mavjud muammolarni standart bo‘lmagan usullarda hal qilish, yangi g‘oyalar va yechimlarni yaratish qobiliyatidir. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning qiziqishlari va iste’dodlarini ochib beradi, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bir qancha usullar samarali hisoblanadi. Ulardan biri bu – gamifikatsiya, bu usul o‘yin elementlarini ta’lim jarayoniga qo‘shish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga va ijodkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Yana bir foydali usullardan biri bu STEAM yondashuvidir. Bu bosqich fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtirgan holda ta’lim berishni qamrab oladi. Bu esa o‘quvchilarda kompleks yondashuv va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Sinalgan metodlardan yana bir bu interfaol metodlar sanaladi. Ushbu metodda muhokamalar, rolli o‘yinlar va guruhli ishlar orqali o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar o‘quv jarayonini o‘quvchilar uchun yanada mazmunli va interaktiv holga keltirib, ularni passiv bilim oluvchilardan o‘z fikrini mustaqil ifoda eta oladigan, izlanishga intiluvchi va bilimni faol egallovchi shaxslarga aylantiradi. Bu yondashuvlar nafaqat nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga, balki amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga ham imkon beradi, bu esa ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, maktab ta’limida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish jamiyatning intellektual va ma’naviy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning intellektual salohiyati va ijodiy imkoniyatlarini maksimal darajada ochish mumkin. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning “O‘zining mustaqil fikri, qarashlari va hayotiy pozitsiyasiga ega bo‘lmagan odam hech qachon haqiqiy ma’noda erkin bo‘lolmaydi” degan fikri bu borada muhim ahamiyat kasb etadi va ta’lim tizimi uchun maqsad va yo‘nalishni belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewey, J. (1997). *How We Think*. Mineola, NY: Dover Publications.
2. *Gamification in Education: Enhancing Learning Through Game Design*. (2015). Cambridge University Press.
3. Nizomov F., Qirg‘izboyev U. European science international conference: *Analysis of modern science and innovation: ingliz tilida insho yozish bilim va ko‘nikmalarini pedagogik innovatsiyalar orqali oshirish* <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/834/774>
4. Karimov, I. A. (2008). *Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat.
5. Robinson, K. (2011). *Out of Our Minds: Learning to be Creative*. Oxford: Capstone.
6. *STEAM Education: Theory and Practice*. (2018). New York: Routledge.